



Do`stlik tuman axborot-kutubxona markazi
Axborot bibliografiya xizmati




O'zbekiston xalq shoiri
Sobir Abdulla 1905-1972
tavalludining 120 yilligiga bag`ishlangan
“Qo`qonning ardoqli farzandi” deb nomlangan
kitobxonlarga
bibliografik sharh.



Mundarija

- Kirish
- Sobir Abdulla hayoti va ijodi
- Asarlari
- Foto lavhalar
- Internet manbalar



Kirish

Sobir Abdulla (1905-1972)

Sobir Abdulla (Abdullaev Sobir) 1905 yil 5 sentyabrda Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq shoiri (1965). O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi (1944). Dastlab eski maktab, so‘ng «usuli jadid» maktabini tugatgach, Qo‘qondagi pedagogika bilim yurti (1922—24), Toshkentdagi mahalliy kadrlarni tayyorlash kursi (1924-26)da o‘qigan. Ilk she‘rlar to‘plami — «Erk ilhomlari» (1931). Shundan keyin uning «Navbahor» (1931), «Ko‘klam na‘rasi», «Zavq» (1932), «Gulshan» (1939), «So‘zvasoz» (1943), «Davriy qo‘shiqlari» (1949), «Hayot gulshani» (1959), «Hayot qo‘shiqlari» (1962), «Devon» (1965) kabi she‘riy kitoblari nashr etilgan. She‘riy ijodi lirika, xajviyot va dostonlardan iborat. 1940 yil sahnalashtirilgan «Tohir va Zuhro»(1939) asari mashhur. Nasriy asarlar ham yozgan («Mavlono Muqimiy» — 1965, roman va boshqa). 1972 yil 24 oktyabrda Toshkent shahrida vafot etgan.

Asosiy qism

Hayoti va ijodi

Sobir Abdulla (Abdullaev Sobirjon) 1905-yil 18-sentyabrda Fargʻona viloyatining Qoʻqon shaxrida ishchilar oilasida tugʻilgan. Sobirjonning otasi Abdullajon Alimov (1863—1933) mirzo (kotib) boʻlib, oliy maʼlumotli shaxs boʻlgani uchun mumtoz oʻzbek, tojik, fors adabiyoti, sheʼriyatining jonkuyar muxlisi boʻlgan. Bedil sheʼriyatining muhlisi, ajoyib shaxmatchi, oʻsha davrning koʻzga koʻringan shoirlari: Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Mavloniy bilan doʻst boʻlgan. Onasi – Xoʻjarbibbi Muhammadamin qizi ham oʻqimishli ayol boʻlib, oʻgʻliga ancha erta oʻqish va yozishni oʻrgatgan. „Nogiron“ va „Osiyo“ taxalluslari bilan gʻazallar yozgan. Uning taʼsiri ostida Sobirjon bolaligidan sheʼriyatga ishtiyoqni kuchaytirdi. Nafaqat onasi balki holasi ham uni shariyatga qiziqishida katta ahamiyat kasb etgan. Bu haqida sjoirning oʻzi quyidagicha eslaydi: „Men chin yurakdan sheʼriyatni orzu qilardim!“

Sobirjon Sakkiz yoshidanoq koʻplab Sharq shoirlarining asarlarini asl nusxada bemalol oʻqiy olar, gʻazallar, masnaviy, qasidalarining teran maʼnosini tushunishga harakat qilardi, kichik kichik baytlar tuzishga urinardi.

1920-yilda maktabni tugatib, Qoʻqon maorif institutida oʻqishni davom ettiradi. 1924—1926-yillarda „Yangi Fargʻona“ gazetasining yumor boʻlimida ishlab, mahalliy va markaziy respublika gazeta-jurnallarida sheʼrlarini faol chop etgan; parallel ravishda Fargʻona viloyati ijroiya qoʻmitasi kotibi boʻlib ishlagan. 1927-yilda u ilk bor drama janrida oʻzini sinab koʻrdi: „Muhbirga bosqin“ nomli birinchi pyesasi nashr etdi^[2].

1928-yildan jurnalistlar tayyorlash kurslarini tugatgandan soʻng Sobir Abdulla ona vatani Qoʻqonga qaytadi va „Qizil Oʻzbekiston“ respublika gazetasining Fargʻonadagi maxsus muxbiri boʻlib ishlaydi. Oʻsha yildan to umrining oxirigacha oʻz sahifalarida zamonaviy jamiyat vakillarining savodsizlik, dilsizlik, ochkoʻzlik, pulxoʻrlik va boshqa illatlarini qoralovchi satira tarzida hikoya va ocherklar chop etadigan „Mushtum“ respublika satirik-hajviy jurnali bilan yaqindan hamkorlik qiladi^[3].

Oʻzbek davlat musiqali teatri (hozirgi Toshkentdagi Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatri)da 1931-yilda isteʼdodli dramaturg sifatida Sobir Abdulla hayotining yangi bosqichi boshlanadi^[4], u yerda adabiy qism boshligʻi lavozimiga taklif qilindi. Keyinchalik musiqali drama teatrlarida yillar davomida mehnat va ijodiy faoliyat davom ettirdi.

Sobir Abdulla 30 ga yaqin sahna asarlari yaratdi. Ular nafaqat Oʻzbekiston, balki Qirgʻiziston, Tojikistonda ham koʻplab teatrlar sahnalarida qoʻyilgan. Ularning baʼzilari („Toxir va Zuxra“, „Alpomish“, „Muqimiy“, „Gul va Navroʻz“) zamonaviy oʻzbek dramaturgiyasining mumtoz namunalari sifatida hozirgacha

respublika teatrlari repertuarlaridan tushmay kelmoqda. Shoir va dramaturg Sobir Abdulla tavalludining 100 yilligi hamda „Tohir va Zuhra“ dramasiga musiqa yozgan bastakor To‘xtasin Jalilovning 110 yilligi munosabati bilan Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatri Toshkentda uning opera versiyasini qayta ishlab chiqarish boshlandi‘

Sobir Abdulla ham o‘zini iste’dodli ssenariy muallifi sifatida ko‘rsatdi. Uning (A. Speshnev bilan birgalikda) ssenariysi bo‘yicha suratga olingan „Tohir va Zuhra“ (1945) badiiy filmi jahon ekranlarini katta muvaffaqiyat bilan aylanib chiqdi va jahon kinosi xazinasidan munosib o‘rin oldi.

Sobir Abdulla „aruz“ she’riy shaklini mukammal o‘zlashtirgan va o‘z ijodida keng qo‘llagan kam sonli zamonaviy o‘zbek shoirlaridan biri edi. Ildizlari asrlarga borib taqaladigan shakl, Alisher Navoiy o‘lmas ijodlarining shakli. Biroq, bu ko‘pincha „sotsialistik realizm“ tanqidchilarining tanqidlariga sabab bo‘ladi, ular „aruz“ ni klassik, ammo eskirgan, versifikatsiyaning arxaik shakli deb hisoblaydilar. Ammo vaqt hamma narsani o‘z o‘rniga qo‘ydi. Sobir Abdulla davrlar chorrahasida ijod qilib, mumtoz va zamonaviy o‘zbek adabiyotini bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib, o‘z asarlarida sharq she’riyatining nafis lirikasi, musiqaliligi, sir-sinoatini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi. U o‘zining lirik asarlarini yaratib, mumtoz shoirlarning eng yaxshi an‘analarini davom ettirib, zamonaviy shoirlar orasida birinchi bo‘lib o‘zining „Devon“ini yaratdi, unda o‘zining asl asarlari: she’rlar, g‘azallar, hajviyalar, muhammaslar, musaddaslar, musammanlar, t arjibandlar, masnaviy, ruboiylar joy olgan.

Sobir Abdulla ko‘plab she’riy to‘plamlar muallifi. Sobir Abdullaning qancha lirik she’r va g‘azallari musiqaga qo‘yilganligini hech kim hisoblamagan, ammo ularning ko‘pchiligi bugungi kunda o‘zbek qo‘shiq san’atining klassikasiga aylantirgani aniq. Ular xalq tomonidan seviladi va hozirgacha kontsertlarda ijro etiladi, radio va televideniya orqali eshitiladi. O‘zbekistondagi har bir to‘y marosimi bugun ham „To‘ylar Muborak...!“ qo‘shig‘i bilan ochiladi. („Tohir va Zuhra“ musiqali dramasidagi to‘y tabrigi, birinchi marta 1939-yilda ijro etilgan.)

1945-yildan KPSS a‘zosi^[5].

Sobir Abdulla 1972-yil 24-oktyabrda vafot etdi. Toshkentdagi (Chig‘atoy qabristoni) dafn etilgan.

Oilasi

Xotini — Saodatxon Abullayeva, (1912 — 1972), uy bekasi. O‘g‘li — Yashin Abdullaev, (1931 - 1992), fizik elektronika, to‘rt qiz va bir o‘g‘li bor. Qizi — Yashna Abdullaeva, (1935 - 2018), yadro fizikasi, bir qiz va bir o‘g‘li bor. Qizi — Gulshan Abdullaeva, (1939 - 2005), infeksiyalar, o‘g‘illari bor. Qizi — Ravshan Abdullaeva, (1944 - 2015), filolog, qizi bor.



Ijodi: *Ilk she'rlar to'plami* — „Erk ilhomlari“ (1931). Shundan keyin uning „Navbahor“ (1931), „Kuklam na'راسi“, „Zavq“ (1932), „Gulshan“ (1939), „Suz va soz“ (1943), „Dav'r qo'shiqlari“ (1949), „Hayot gulshani“ (1959), „Hayot qo'shiqlari“ (1962), „Devon“ (1965; Hamza mukofoti, 1971) kabi she'riy to'plamlari nashr etilgan. Sobir Abdullaning she'riy ijodi lirika, xajviyot va dostonlardan iborat Sobir Abdulla aruz vazniga karshi kurash va umumiy badiiy ijodni mafkuralashtirish jarayoni kechgan bir davrda o'zbek adabiyeti klassiklarining boy poetik an'alarini davom ettirib, mumtoz adabiyotimiz bilan zamonaviy adabiyot o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini o'tagan. Sobir Abdulla voqelikda ro'y bergan voqea va hodisalarni ifodalashda aruz vazni imkoniyatlaridan samarali foydalangan, ayniqsa, g'azal janrida kishilarga zavqshavq bag'ishlaydigan, ulardagi ezgulik va nafosat tuyg'ulariga ruhiy oziq beradigan ko'plab asarlar yozgan. Uning bastakorlar tomonidan kuyga solingan eng yaxshi gazallari o'zbek qo'shiqchilik san'atining ravnaqiga muhim hissa bo'lib qo'shiddi. Sobir Abdulla ayni paytda hajviy she'rlar ham yozgan. Liroepik janrlarda ham samarali ijod qilgan („Manyovr“, 1931; „O'rtoq Yoqubova“, 1934; „Katta Farg'ona kanali“ tona Polvon o'g'li“, 1940; „Gul va sanam“, 1957; „Quralay ko'z bir kelinchak“, 1958; „Tun va tong“, 1971, dostonlar).

Sobir Abdullaning o'zbek adabiyeti taraqqiyotiga qo'shgan katta hissasi uning dramalaridir. „Muxbirga hujum“ dastlabki pyesasi 1927-yil Qo'qon drama truppasi tomonidan sahnaga qo'yilgan. Shundan so'ng Sobir Abdulla „Bog'bon qiz“ (1926, doston asosida), „Bo'ston“ (1937) bir pardali pyesasi hamda „Tohir va Zuhra“ (1939) pyesalarini yezdi. 1940-yilda ilk bor sahna yuzini ko'rgan va hanuzga qadar o'zbek musiqiy teatrlari repertuarlarini bezab kelayotgan „Tohir va Zuhra“ asari Sobir Abdulla ijodining gultojidir. Sobir Abdulla dramasi bilan Tuxtatsin Jalilovning musiqasi o'zaro uyg'unlashgan holda sevgi va muhabbat haqidagi Sharq afsonasining „Romeo va Julietta“, „Layli va Majnun“ singari jahon adabiyotining mashhur ishqiy asarlari darajasiga yaqinlashishiga imkoniyat yaratdi. Sobir Abdullaning ushbu asari asosida „Tohir va Zuxra“ kinofilmi (rejissyor N. G'aniyev) va opera spektakli (kompozitorlar T. Jalilov va boshqa Brovsin) ham yaratilgan. Sobir Abdulla urush yillarida hamkorlikda „Qo'chqor Turdiyev“ (1941), „Davron ota“ (1942), „O'zbekiston qilichi“ (1943), urushdan keyingi yillarda esa zamonaviy hamda tarixiyafsonaviy mavzularda „Alpomish“, „Gul va Navro'z“, „Iste'dod“, „Mening jannatim“, „Hijron va vijdon“ singari pyesalarni ham yozdi. Bu asarlarning aksari poytaxt va viloyat teatrlarida sahnalashtirilgan.

Sobir Abdullaning adabiy merosida nasriy asarlar ham salmoqli o'rinni egallaydi. Uning 1931-yilda nashr etilgan „Navbahor“ to'plamidan she'rlar bilan birga davrning dolzarb mavzularida yozilgan hikoyalar ham urin olgan. Sobir Abdulla nasriy janrlardagi izlanishlarini davom ettirib, „Ulfat“ (1939), „Soyalar“ (1963) hikoyalar to'plamlarini e'lon qildi. Kichik nasr janrlarida erishilgan tajriba yozuvchining „Mavlono Muqimiy“ romani (1965) ustida olib borgan ijodiy ishida, ayniqsa, qo'l keldi. Sobir Abdulla Muqimiy va uning zamondoshlarini ko'rgan kishilar xotiralari asosida romanda shoir hayoti va u yashagan tarixiy davr manzaralarini haqqoniy aks ettirdi. Keyinchalik Sobir Abdulla tarixiy o'tmish





mavzuida yozilgan „Besh sarguzasht“ qissasini (1971), Hamza, Gʻ. Gʻulom, A. Umariy, M. Uzoqov kabi adabiyot va sanʼat namoyandalariga bagʻishlangan xotiralarini yozdi. Sobir Abdulla „Tohir va Zuhra“, „Maysaraning ishi“ operalari librettosining ham mualliflaridan biri. Qoʻqon va Toshkentdagi bir necha koʻcha, maktab va kutubxonaga shoir nomi berilgan^[1].

Unvonlar va mukofotlar

1944 - Oʻzbekiston SSRda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi.

1965 - Oʻzbekiston SSR xalq shoiri

1971 - „Devon“ sheʼriy toʻplami uchun Hamza nomidagi Oʻzbekiston SSR Davlat mukofoti

Mehnat Qizil Bayrogʻi Ordeni (18.03.1959)

2 marotaba "Mehnat faxriysi" medali (31.01.1939; 1950)

2 marotaba „Shon-sharaf belgisi“ ordeni (1944; 1946)

Sheʼriyati:gʻazallar

KELUR

Mehribon, jonparvarim, yonimga jononim kelur,
Sevgilim holim soʻrab, yori qadrdonim kelur.

Aylasam yuz jonni qurbon oz erur bir lutfiga,
Xastadirmanki goʻiyo doru darmonim kelur.

- Lab ochib soʻz boshlaganda baxsh etib jismimga jon,
Boʻsai laʼli labidan obi hayvonim kelur.
- Ohkim, goh vaʼda bergay, kelmagay qon yuttirib,
Yoʻl kutardan... koʻzlarimdan yosh bilan qonim... kelur.
- Xastalik yuzlandi jonimga, tabibim bexabar,
Kelsa gar hoziq tabibim: jism aro jonim kelur.
- Andalibdirmen saharlar gʻunchalab yodi bilan,
Rahm etib yonimga goh husni gulistonim kelur.
- Toleim boʻlgil madadkorimki, chiqmay yodidan,
Sobiro, yoring eshikdan yoʻqlagan onim kelur.
- **SOʻRSANGIZ, AHBOLAR**
- Soʻrsangiz ahaboblar, paydo-yu nopaydolgim,
Soʻrsangiz holat boisidir oshigʻi shaydolgim.
- Bir koʻrib shaydo boʻlibdirmen koʻzi shahlogakim,
Sehr ila sayd ayladi koʻnglim koʻzi shahlolgim.



- Bazm aro tutdi qadah, yuz ishva-yu noz avjida,
Soldi bu holatga yori sho‘xu bazmoroligim.
- Lab ochib ahvol so‘rdi ul masihoi zamon,
Jon bag‘ishlab suhbatidan, so‘zlari ma’noligim.
- Bo‘ldilar bebahralar may birla mast, men vasl ila,
Qaysi til birla qilay ifsho bu xil tanholigim.
- Vasl bazmida ko‘rib, ey muddaiy, nodon deding,
Vaqt emas, isbot uchun nodonligim, donoligim.
- Shomdan to erta, Sobir, kuylasam bulbul kabi,
Tong emas, ko‘rguzsa oraz qomati ra’noligim.

• **MENGA QOLDIRGANLARI...**

- Yor ketdi yiroq, ahd ila paymonlari qoldi,
Jonga qadalib nashtari mujgonlari qoldi.
- Umring bo‘yi men yori vafodor bo‘laman deb,
Qoldim o‘zimu ul so‘zi yolg‘onlari qoldi.
- Yor ila ketib bazmi visol tonglari birga,
Men ila firoq tunlari, hijronlari qoldi.
- Ul sarvi qadim ketdi chamandan, izi qoldi,
Andoqki, aning bog‘da xiromonlari qoldi.
- Xurshidvashim botdi, jamolini yoshurdi,
Men oshig‘iga tiyra shabistonlari qoldi.
- Armonsiz edim yor ila, evoh, bu na holkim,
Ko‘nglimda to‘la hasratu armonlari qoldi.
- Ishqimni qilib yor ketar vaqtida ifsho,
Dilda yoshurun va‘dai pinhonlari qoldi.
- Axdiga vafo qilmadi ul sho‘x dema, Sobir,
Qaytib keladir, davr ila davronlari qoldi.

• **ERTA-KECH**

- Yuzu zulfingni xayoli birla dildor erta-kech,
Goh yorug‘dir, goh qorong‘idir fusunkor erta-kech.
- Gohi lutfingdan erur subh, goh qahringdan bu shom,
Vasl ummidi salomat, hajri bemor erta-kech.
- Aylanib boshingda xurshid, bo‘ldi sadqang ko‘kda oy,
Oh, yo‘l bermas menga bu ikki ag‘yor erta-kech.
- Bir ko‘rish shavqida husning tunlarim qildim sahar,
Kokiling o‘ylab saharlar tun bo‘lur yor erta-kech.
- Ey sumanbar, iltifot etgilki, o‘tgan yillarim
Mushki anbar axtarib kezmoqtsa bozor erta-kech.

- Kunduzi — gul yuz g‘ami, tun bo‘lsa zulfing qayg‘usi,
O‘tkazib, ne chorakim, takror-takror erta-kech.

Bo‘lmadi ko‘rmoq muyassar, Sobiro, yuzu zulf,
Yoshururidan pardai sir ichra makkor erta-kech.

YOYDINGMI, YOR, ZULFING?

Tun bo‘ldi anbarafshon, yoydingmi, yor, zulfing?
Silkindi qulfi rayhon, yoki, nigor, zulfing.

Bo‘y tutdi Xindiqushni, mahv etdi esu hushni,
Yo mushk badanli mehmon, yo mushkbor zulfing.

Orqangda ikki soya, aylar qadding himoya,
Birga kezishda bo‘ston, bo‘yingcha bor zulfing.



Esdi nasm chamanda, ishq ahli uxlaganda,
Aqlimmi bu parishon, yo beqaror zulfing.

Zulfing yozildi oqshom, jon saydiga bo‘lib dom,
Sayyodmi, shomi hijron, yo badxumor zulfing.

Soch silkitib, arozlal, chal asta sozni sozlab,
Jonlar g‘izosi, jonon, o‘ynashda tor zulfing.

Har halqa-halqa zanjir, daf‘i jununga tadbir,
Sobir dilida armon, Layli uzor zulfing.

Kitoblari:



Asarlaridan parcha: ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/sobir...

SOBIR ABDULLA. SHOIR HANGOMIY VA QO'TIR ECHKI (HIKOYA)

Bir zamonlar shaharning chekkaroq mahallasida yashovchi bog'dor Mustafoqul ismli mulla kishi yoshi qaytgandan keyin birdaniga o'zini shoir e'lon qilib, Hangomiy taxallusi bilan poyma-poy g'azallar to'qiy boshladi.

Bog'da ketmon chopib yoki tokni xomtok qilib turganda ilhom kelib qolar, ketmonni u yoqqa, tok qaychini bu yoqqa ulotqirib supadagi qalam-davvotga yugurar, dam shosha-shosha yozar, dam xayol daryosiga g'arq bo'lib, osmonga qaragancha turib qolar, dam diqqatu, dam danak topib olgan jinnidek og'zi qulog'ida. Erining bu kayfiyatidan fig'oni chiqqan xotin, erining chala qoldirgan ishini davom ettirib turib, g'udillaydi:

— Shaerligingiz qursin! Na mehnatingizda baraka va na ovqatingizda maza!.. Qariganda shaerlikka balo bormidi! Koshki bunday odam eshitganda huzur qilib, quloq soladigan shig'ir bo'lsa!.. Boshdan-oyoq chalama-chakki gaplar!..

Xotining g'udillashidan ensasi qotgan Hangomiy, qalamni zarda bilan xontaxtaga tashlab, uni koyiy boshlaydi:

— Hoy, esi past!.. Javray berib, ilhom parisini qochirib yubording-ku!.. Tushunmaganingdan keyin jimgina yura bermaysanmi?.. Astag'firullo!.....

SOBIR ABDULLA. XOMTAMALIK BALOSI (HIKOYA)

Oq poshsho zamonida, shaharlarning birinda Parpixo'ja nomli kishi bir katta mahallaning ellik boshisi bo'lib, uzoq yil davr surdi, boshqa ellik boshilar ko'pincha uning maslahati bilan ish qilar edilar, u doim shahar boylarining to'ylarida bel bog'lab xizmat qilib, dasturxonchilik «fazilati» bilan ham mashhur edi.

Biroq, Parpixo'ja ellik boshining g'ashiga tegadigan yana bir «fazilati» bo'lib, to'ylarga taklif qilingan hofizlar yoniga o'tirib olar, yoqimsiz, g'aliz, yovvoyi ovozi bilan xonishlarga qo'shilar, hammaga malol kelar, do'stlari bu haqda tanbeh bersalar quloq solmas edi.

Bir kuni bir ziyofatdagi mayxo'rlikdan keyin bir-ikki ko'ngiltortar ulfatlariga «Mastlik—rostlik» qilib, yuragida tugib yurgan «dardi»ni aytdi va ulardan o'pkaladi:

— Hozirgi shahar ming boshisi bo'lib yurgan odamlardan nimam kam?.....

SOBIR ABDULLA. O'G'RINING SO'NGGI YO'LI (HIKOYA)

Hokim o'zi tug'ilib o'sgan qishloqdan otliq sipohlari bilan o'tib bora turib, ta'zimga egilgan dehqonlar orasida yoshligida, yigitlik davrlarida birga bo'lgan og'aynisini ko'rdi va uni yoniga chaqirib, hol-ahvolini surishtirdi:

— Holing qalay, qiynalganing yo'qmi?

— Holimni ko'rib turibsan, to'n ming yamoq, mehnatga toqatim yo'q, bola-chaqalikman, dehqonlar orasida hurmatim yaxshi emas!..


— Unday bo'lsa, men bilan ket, o'zingga yarasha kichikroq amal beraman, joy beraman, ot mindirib qo'yaman!

Hokimning og'aynisi bu taklifni bosh chayqab rad etdi va hokimning qulog'iga o'z istagini izhor qildi:

— Yigitlik davrlarimni sen bilan kechalari o'g'rilik, yo'lto'sarlik-qaroqchilikda o'tkazib, sen ishingni boplab ketdingu, men qishloqda «o'g'ri» nomi bilan tanilib, xalq nazaridan uzoqda qimtinib hayot kechirish bilan keksaydim, to'yda ham, azada ham doim poygada qolaman!.....

Ushbu adabiyotlar ro'yxatida Sobir Abdullaning hayoti va ijodi yoritib berilgan.

- Abdurahmono va M., Sobir Abdulla. Hayoti va ijodi haqida ocherk, T., 1965; Abdurahmonova va M., Zamin va zamon kuychisi, T., 1975.
- Sovet O'zbekistoni yozuvchilari. Toshkent. 1959-yil.
- R. Muqimov. „Sobir Abdulla“ (Adabiy portret). Toshkent. 1965-yil.



Foydalanilgan manbalar:

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Налёт на корреспондента (Wayback Machine saytida 2016-03-04 sanasida arxivlangan)
3. „Журнал Муштум“ (deadlink). 2014-yil 26-noyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2015-yil 25-aprel.
4. „Узбекский государственный музыкальный театр драмы и комедии им. Мукими“ (deadlink). 2013-yil 8-oktyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2015-yil 25-aprel.
5. *Турсунов Т. Абдулла Сабир* // Театральная энциклопедия / под ред. С. С. Мокульского. — М.: Советская энциклопедия, 1961. — Т. 1.

tsuull.uz/sites/default/files/mar4_2_1.pdf

ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/sobir...